

2019-yil yanvar-mart holatiga

RAQAMLAR:

**Aholining umumiy daromadlari -
64,9 trln.so'm**

**Aholi umumiy daromadlarining
real o'sish sur'ati - 108,6 %**

**Aholi jon boshiga umumiy
daromadlari - 1 948,9 ming so'm**

**Aholi jon boshiga umumiy
daromadlarining real o'sish
sur'ati - 106,6 %**

Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilning yanvar-mart holatiga aholi umumiy daromadlari 64,9 trln. so'mni, bir kishiga o'rtacha hisoblaganda 1,9 mln. so'mni tashkil etdi.

Mamlakat aholisining farovonlik darajasini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlaridan biri aholi daromadlari hisoblanadi.

Aholining umumiy daromadlari - majburiy to'lovlar va boshqa ajratmalarni amalga oshirishga qadar bo'lgan yalpi daromadni ifoda etadi.

Aholining umumiy daromadiga pul daromadlari va natura shaklidagi daromadlar kiradi.



Aholi daromadlari bo'yicha real o'sish sur'atlarini hisoblashda narx omillari ta'sirini chiqarib tashlash maqsadida inflyatsiya ko'rsatkichlarining asosiy turlaridan biri - iste'mol narxlari indeksidan (INI) foydalaniladi.

Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholining umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati 108,6 % ni tashkil etdi.



2019 yilning yanvar-mart holatiga O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlari hajmi, ming so'm




Aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlari bo'yicha Toshkent shahrida (4687,2 ming so'm) hamda Navoiy (2965,5 ming so'm), Buxoro (2208,5 ming so'm), Toshkent (2134,1 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlar qayd etilganligi kuzatildi.

Aholi jon boshiga daromadlarning eng quyi ko'rsatkichlari esa Namangan (1406,8 ming so'm), Farg'ona (1468,7 ming so'm) va Surxondaryo (1512,2 ming so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sishi Toshkent shahri (14,6 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (9,0 %) to'g'ri keladi. Shuningdek, Buxoro (7,0 %) hamda Surxondaryo (6,7 %) viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromad ko'rsatkichlarining real o'sishi respublika darajasidan yuqorini tashkil etgan.




2019-yilning yanvar-mart holatiga O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarining real o'sish sur'atlari, %






Aholi umumiy daromadlari hajmining sezilarli darajada o'sishi asosan umumiy daromadlar tarkibida 66,0 % ulushga ega bo'lgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) va 26,1 % ni tashkil etuvchi transfertlardan olingan daromadlarning sezilarli o'zgarishi hisobiga yuzaga kelgan.

Aholi umumiy daromadlari tarkibi



- Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar
- Transfertlardan daromadlar
- Mol-mulkdan olingan daromadlar
- Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibi (hudud aholi umumiy daromadlariga nisbatan, %)



■ Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar


■ Shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan va mol-mulkdan olingan daromadlar

■ Transfertlardan daromadlar

Hududlarning aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) eng yuqori ulushi Navoiy (80,2 %) viloyatida kuzatildi. Aksincha, Toshkent shahri, Samarqand, Namangan, Xorazm, Andijon, Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.


Shuningdek, Samarqand, Andijon va Surxondaryo viloyatlarida transfertlardan olingan daromadlar aholi umumiy daromadlariga nisbatan 30 % dan yuqori ulushni tashkil etdi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar




Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning aholi umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi

2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan nominal o'sish sur'ati



Aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar va yollanma ishchilarning daromadlari) sezilarli ulushni tashkil etadi. 2019-yilning yanvar-mart oylari ma'lumotlariga ko'ra mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi 66,0 % ni, nominal o'sish sur'ati 2018-yilning mos davriga nisbatan 123,4 % ni tashkil etdi hamda aholi umumiy daromadlarining nominal hajmining 15,4 % ga o'sishini ta'minladi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar



Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar


Yollanma ishchilarning daromadlari

Yollanma ishchilarning daromadlari

2019-yilning yanvar-mart oylarida yollanma ishchilarning daromadlari 28,9 % ga oshdi va aholi umumiy daromadlaridagi ulushi 32,4 % ni tashkil etdi.



2019 yilning yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, %)



Yollanma ishchilar daromadlarining eng yuqori nominal o'sish sur'ati Jizzax (135,3 %), Namangan (133,2 %) va Samarqand (132,5 %) viloyatlarida qayd etildi.

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar

33,6 %



Aholi umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi




118,6



2018-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan nominal o'sish sur'ati

Hududlar bo'yicha umumiy daromadlar tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi, %



Hududlarda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning ulushi turlicha va 15,6 % dan (Toshkent shahrida) 48,2 % gacha (Jizzax viloyatida) o'zgarib turadi.




Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar



Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1 % ga o'sishi umumiy daromadlar hajmining 0,35 % ga o'sishiga olib keladi.

Hududlar bo'yicha mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning 1% ga o'sishining aholi umumiy daromadlari hajmi o'sishiga ta'siri, %



Mol-mulkdan olingan daromadlar

3,4 trln. so'm



Mol-mulkdan olingan daromadlarning umumiy hajmi
124,6 %




2018-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati

5,3%



Aholi umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi

Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibi, %




Aholi umumiy daromadlari hajmining o'zgarishiga mol-mulkdan olingan daromadlarning ta'siri juda kam. Joriy davrda mol-mulkdan olingan daromadlar aholi umumiy daromadlari hajmining 1,3 % ga o'sishini ta'minladi.

Mol-mulkdan olingan daromadlar

2019-yilning yanvar-mart oylarida mol-mulkdan olingan daromadlar hajmining uchdan ikki qismi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, 67,8 % ni tashkil etdi. Toshkent (6,8 %), Samarqand (4,4 %), va Namangan (3,8 %) viloyatlari keyingi yuqori ulushga ega bo'lganlar hududlar hisoblanadi.



Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida hududlarning ulushi, %



Transfertlardan olingan daromadlar

2019 yilning yanvar-mart oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra o'tgan yilning mos davriga nisbatan transfertlardan olingan daromadlarning nominal o'sish sur'ati 121,6 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ushbu davrda aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi 0,3 % punktga kamaydi va 26,1 % ni tashkil etdi.



Transfertlardan olingan daromadlar tarkibi

47,3 %


Ijtimoiy transferftlar

52,7 %

Boshqa joriy transfertlar

Ijtimoiy transfertlar


Ijtimoiy transfertlarning turlari bo'yicha o'sish sur'ati, %



Ijtimoiy transfertlar pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalardan iborat. Joriy davrda ijtimoiy transfertlarning aholi umumiy daromadlari tarkibida ulushi 12,3 % ni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 129,8 % ni tashkil qildi.

2018-yilning mos davri ma'lumotlari bilan taqqoslaganda pensiyalarning o'sish sur'ati 127,4 % ni, nafaqalarning o'sish sur'ati 146,5 % ni, stipendiyalar ning o'sish sur'ati esa 129,6 % ni tashkil etdi.

Ijtimoiy transfertlar tarkibi, %




O'tgan davr mobaynida pensiya, nafaqa va stipendiyalarning o'zgarishi aholi umumiy daromadlarining 3,5 % ga o'sish imkonini berdi.

Ijtimoiy transfertlarning 82,4 % ni pensiyalar, 13,3 % ni nafaqalar, 4,3 % ni stipendiyalar tashkil qildi.



Joriy yilning yanvar-mart oylarida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida jami 1,1 trln. so'm miqdorida nafaqa va moddiy yordamlar ajratildi. Shundan 52,5 % byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtiriladigan davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar va 47,5 % respublika va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan.

Hududlar bo'yicha ijtimoiy nafaqalarning shakllanish manbalari, %



■ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan

■ Respublika va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan




Boshqa joriy transfertlar




2019-yilning yanvar-mart oylari bo'yicha boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining nominal o'sish sur'ati 115,1 % ni tashkil etdi. Aholi umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,0 % punktga kamayib, 13,7 % ni tashkil etdi. Ushbu daromadlarning o'zgarishi aholi umumiy daromadlari nominal qiymatini 2,2 % ga o'sishini ta'minlab berdi.

Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining ulushi, %



Aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar



2019-yil yanvar-mart oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra aholi umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi 54,9 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning hudud aholi umumiy daromadlaridagi ulushi turlicha: eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (63,0 %) kuzatilgan bo'lsa, eng kam ulush esa Qoraqalpog'iston Respublikasida (45,3 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi, %

